

**AO "Uz RTSB"2022-yil 22-noyabrdagi № 191211 Lotga asosan
Xizmat ko'rsatishga oid
SHARTNOMA № 94/2**

Urgut t.
yil

«28»noyabr 2022-

"URGUT OZOD BINOKOR QURILISHM" MCHJ keyingi o'rinlarda "Bajaruvchi" deb yuritiladi. O'zining Nizomi asosida ish yurituvchi O.Oripov nomidan, bir tomondan va Urgut tuman XTB keyingi o'rinlarda "Buyurtmachi" deb yuritiladi, o'zining Nizomi asosida ish yurituvchi mudir E.Pulatov nomidan, ikkinchi tomondan mazkur shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar.

I. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. Mazkur shartnoma bo'yicha "Bajaruvchi" Urgut tuman XTB tasarrufidagi 94-maktabda 6 Ochkoli bulgan xojatxona qurish (keyingi o'rinlarda - "Ishlar" deb yuritiladi) ishlarini bajarish, "Buyurtmachi" ushbu "Ishlar"ni qabul qilish va qiymatini to'lash majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

1.2. "Ishlar"ning aniq turlari, ularning soni, sifati va narxi, shuningdek ularni ko'rsatish muddatlari mazkur shartnomaning tarkibiy qismi hisoblangan ilovada keltiriladi.

1.2. Shartnomaning umumiy summasi 80 000 000 (Sakson million)so'm tashkil qiladi

1.3. *Ishni boshlash va topshirish muddati: Boshlanishi: "28"noyabr 2022 y. Tugashi: "20"dekabr 2022 y.*

**II. TOMONLARNING
HUQUQ VA MAJBURIYATLARI**

2.1. "Buyurtmachi"ning huquqlari:

2.1.1. "Bajaruvchi"dan shartnomani bajarish uchun zarur bo'lgan amaldagi davlat standartlari va boshqa normativ hujjatlar bilan ta'minlashni talab qilish;

2.1.2. "Bajaruvchi" dan "Ishlar" "Buyurtmachi" ning hisobiga transportda tashilganda transport xarajatlarini qoplashni talab qilish;

2.1.3. "Bajaruvchi"dan mazkur shartnomaga muvofiq, bajariladigan «Ishlar» ni nukson dalolatnomasiga muvofiq tegishli sifatga ega bo'lgan "Ishlar" ko'rsatilishini talab qilish;

2.1.4. Zarur sifatga ega bo'lmagan "Ishlar" ko'rsatilgan taqdirda o'z tanlashiga ko'ra:

- zarur sifatga ega bo'lmagan "Ishlar" shunga o'xshash "Ishlar" bilan almashtirilishini;
- "Ishlar"ning kamchiliklari bepul bartaraf etilishini yoki kamchiliklar "Buyurtmachi" yoxud uchinchi shaxslar tomonidan to'g'rilanishi xarajatlarini qoplashni;
- bahosining mutanosib tarzda kamaytirilishini talab qilish;

2.1.5. SHartnoma shartlari bajarilmaganligi yoki zarur darajada bajarilmaganligi natijasida etkazilgan zarar qoplanishini "Bajaruvchi"dan talab qilish.

2.2. "Buyurtmachi"ning majburiyatlari:

2.2.1 O'z buyurtmanomasi bo'yicha ko'rsatilgan "Ishlar"ni mazkur shartnomaga muvofiq qabul qilish;

2.3. «Bajaruvchi» quyidagi huquqlarga ega:

2.3.1. Ko'rsatilgan "Ishlar" uchun oldindan haq to'lanishini va amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va hajmda uzil-kesil hisob qilinishini "Buyurtmachi"dan talab qilish;

2.3.2. Berilgan buyurtmanomaga muvofiq ko'rsatilgan "Ishlar"ni qabul qilish asossiz rad etilishi natijasida etkazilgan zarar qoplanishini "Buyurtmachi"dan talab qilish.

2.4. «Bajaruvchi» quyidagilarga majbur:

2.4.1. "Buyurtmachi"ga "Ishlar"ni mazkur shartnomaga muvofiq yoki "Buyurtmachi" tomonidan mazkur shartnomaning 4.8-bandida nazarda tutilgan tartibda beriladigan uning buyurtmanomasiga muvofiq muddatlar, sifat va miqdorda ko'rsatish;

2.4.2. Agar "Ishlar"ni bajarish jarayonida "Bajaruvchi" shartnoma shartlari va normativlardan chekinishga yo'l qo'ygan bo'lsa, "Buyurtmachi"ning talabi bilan aniqlangan barcha kamchiliklarni 3 kun muddatda tekin ta'mirlab berish.

III. SHARTNOMANING BAHOSI VA HISOB-KITOB TARTIBI

3.1. Mazkur shartnomaning bahosi **80 000 000 (Sakson million)**so'm ni tashkil etadi. Bajariladigan "Ishlar"ning bahosi mazkur shartnomaga ilovada ko'rsatilgan.

3.2. Ko'rsatilgan "Ishlar" uchun pul ko'chirish yo'li bilan naqd pulsiz tartibda hisob-kitob qilinadi.

3.3. "Buyurtmachi" mazkur kontrakti g'aznachilik bo'linmalarida ro'yxatga olingan kundan boshlab 10 bank ish kuni ichida qonunchilikka muvofiq kontrakt umumiy summasidan 30% miqdorida (shartnoma summasining 30% miqdorida) oldindan to'lash majburiyatini oladi, qolgan 70% ni bajarilgan ishlar to'g'risidagi dalolatnoma imzolanganidan so'ng 10 bank ish kuni ichida qabul qilish dalolatnomasi, hisob-faktura v.b. asosida to'laydi.

IV. SHARTNOMANING BAJARILISHI

4.1. SHartnoma mazkur shartnoma va qonun hujjatlari shartlari va talablariga muvofiq zarur tarzda bajarilishi kerak. Agar tomonlar o'z zimmlariga qabul qilingan barcha majburiyatlar bajarilishini ta'minlasa, shartnoma bajarilgan deb hisoblanadi.

4.2. SHartnoma bajarilishini bir tomonlama rad etishga yoki shartnoma shartlarini bir tomonlama o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi, qonun hujjatlarda belgilangan hollar bundan mustasno.

4.3. "Ishlar" qabul qilish-topshirish dalolatnomalari tuzilgan sana shartnomalar bo'yicha majburiyatlar bajarilgan sana hisoblanadi.

4.4. "Buyurtmachi" muddatlar buzilgan holda ko'rsatilgan "Ishlar"ni qabul qilishni rad etishga haqlidir.

4.5. Nazarda tutilgan xajmdan ortiqcha bir nomda "Ishlar" ko'rsatilishi ushbu assortimentga kiruvchi boshqa nomdagi ko'rsatilmagan "Ishlar" o'rnini to'ldirish sifatida qaralmaydi va ko'rsatilmagan "Ishlar"ning o'rnini to'ldirilishi kerak, bunday "Ishlar" "Buyurtmachi"ning oldindan berilgan yozma roziligi bo'yicha ko'rsatilgan hollar bundan mustasno.

4.6. Bajarilgan "Ishlar" bevosita "Buyurtmachi"ning mas'ul xodimi tomonidan dalolatnoma bo'yicha qabul qilinadi. Dalolatnomada bajarilgan "Ishlar" xajmi, ularning sifati ko'rsatiladi.

4.7. SHartnomada nazarda tutilgan "Ishlar" ko'rsatilishi mazkur shartnomaga muvofiq yoki "Buyurtmachi"ning buyurtmanomasida ko'rsatilgan muddatlar va hajmda mazkur shartnomada ko'rsatilgan davr mobaynida amalga oshiriladi. Ushbu maqsadlarda "Bajaruvchi" Buyurtmachilarning buyurtmanomalarini ro'yxatdan o'tkazish daftarini

sifatida qaralmaydi va ko'rsatilmagan "Ishlar"ning o'rni to'ldirilishi kerak, bunday "Ishlar" "Buyurtmachi"ning oldindan berilgan yozma roziligi bo'yicha ko'rsatilgan hollar bundan mustasno.

4.6. Bajarilgan "Ishlar" bevosita "Buyurtmachi"ning mas'ul xodimi tomonidan dalolatnoma bo'yicha qabul qilinadi. Dalolatnomada bajarilgan "Ishlar" xajmi, ularning sifati ko'rsatiladi.

4.7. SHartnomada nazarda tutilgan "Ishlar" ko'rsatilishi mazkur shartnomaga muvofiq yoki "Buyurtmachi"ning buyurtmanomasida ko'rsatilgan muddatlar va hajmda mazkur shartnomada ko'rsatilgan davr mobaynida amalga oshiriladi. Ushbu maqsadlarda "Bajaruvchi" Buyurtmachilarning buyurtmanomalarini ro'yxatdan o'tkazish daftarini yuritadi. Buyurtmanoma "Ishlar"ning tegishli qismlarini ko'rsatish mo'ljallanayotgan sanasigacha kamida 5 kun oldin chopar orqali, pochta orqali yoki boshqacha tarzda beriladi. Buyurtmanomani chopar orqali qabul qilishda "Bajaruvchi"ning xodimi "Buyurtmachi"da qoladigan nusxaga sanani ko'rsatgan holda u qabul qilinganligi to'g'risida belgi qo'yadi.

4.8. "Buyurtmachi" ilgari berilgan buyurtmanomani bekor qilishga yoxud "Ishlar"ning tegishli qismlarini ko'rsatish sanasini o'zgartirishga haqlidir, bu haqda "Bajaruvchi"ni buyurtmanomada ko'rsatilgan sana boshlanishidan kamida 1 kun oldin xabardor qiladi.

V. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

5.1. Bajarilayotgan "Ishlar" sifati, xajmi "Bajaruvchi" tomonidan noto'g'ri aniqlanishi, ularning qiymati noto'g'ri belgilanishi va undirilishi hollari aniqlangan taqdirda "Bajaruvchi" bajarilayotgan "Ishlar"ning sifatini, shuningdek ularning xajmini hisobga olgan holda qayta hisob-kitob qiladi, hisoblab chiqilgan ushbu summadan tashqari buyurtmachiga noto'g'ri hisob-kitob qilingan summaning 20 foizi miqdorida jarima to'laydi.

5.2. Agar bajarilgan "Ishlar"ning sifati, assortimenti, navlari standart, texnik shartlar talablariga, namunalarga (etalonlarga) yoki shartnomada belgilangan boshqa shartlarga javob bermagan taqdirda, aybdor tomon ko'rsatilgan, sifati zarur darajada bo'lmagan "Ishlar" qiymatining 20 foizi miqdorida jarima to'laydi.

5.3. "Ishlar" ko'rsatish bo'yicha shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlar bajarilishi rad etilganligi uchun "Bajaruvchi" "Buyurtmachi"ga belgilangan ustamalardan tashqari ko'rsatilishi kerak bo'lgan "Ishlar"ning 25 foizi miqdorida jarima to'laydi. Jarimadan tashqari, "Bajaruvchi" "Buyurtmachi"ga "Ishlar" bajarilmasligi natijasida etkazilgan zararni to'laydi.

5.4. Ishlar bajarish kechiktirilgan yoki to'liq bajarilmagan taqdirda "Bajaruvchi" "Buyurtmachi"ga kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi bajarilmagan "Ishlar" qiymatining 50 foizidan ortiq bo'lmasligi kerak. Penya to'lanishi shartnoma majburiyatlarini buzgan tomonni shartnomani zarur tarzda bajarishdan va "Ishlar" bajarish muddati kechiktirilishi yoki to'liq bajarilmasligi tufayli etkazilgan zararlar qoplanishidan ozod etmaydi.

5.5. Bajarilgan "Ishlar" uchun o'z vaqtida haq to'lanmaganda "Buyurtmachi" "Bajaruvchi"ga muddati kechiktirilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4 foizi miqdorida maxsus hisobraqamidan penya to'laydi, biroq bu kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'lmasligi kerak.

5.6. "Buyurtmachi" tomonidan tegishli kontraktatsiya shartnomasi bajarilmaganligi yoki zarur darajada bajarilmaganligi uchun "Buyurtmachi"ni javobgarlikka tortishda shuningdek uning xatti-harakatlari (harakatsizligi) "Buyurtmachi" tomonidan kontraktatsiya shartnomasi bo'yicha shartnoma majburiyatlari bajarilmasligiga (zarur tarzda bajarilmasligiga) olib kelgan "Bajaruvchi"ning javobgarligi ham ko'rib chiqiladi. "Bajaruvchi"ning aybi bilan kontraktatsiya shartnomasining "Buyurtmachi" tomonidan bajarilmasligi (zarur tarzda bajarilmasligi) natijasida etkazilgan zarar belgilangan tartibda "Bajaruvchi" tomonidan qoplanadi.

5.7. Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan tomonlarning javobgarligi chora-tadbirlari fuqarolik qonunchiligi normalariga muvofiq qo'llaniladi.

5.8. Nazorat organlari tomonidan utkazilgan tekshirish davomida bajarilgan ishlar va tovar maxsulotlar narxi yukori deb topilgan takdirda urtadagi fark «Ishlar» bajaruvchi tomonidan koplanadi.

VI. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

6.1. Kelishmovchiliklar va nizoli masalalar kelib chiqqan taqdirda, tomonlar, qoidaga ko'ra, mustaqil ravishda ularni sudgacha hal etish choralari ko'radilar.

6.2. Tomonlar kelishmovchiliklar va nizolarni hal etish uchun bevosita sudga murojaat qilishga haqlidir.

VII. SHARTNOMANING AMAL QILISHI

7.1. Mazkur shartnoma **2022 yil «28» noyabrdan 2022 yil «31» dekabrgacha** amalda bo'ladi.

7.2. Tomonlar o'rtasidagi munosabatlar ular tomonidan mazkur shartnomaning barcha shartlari bajarilgan va hisob-kitob to'liq tugallangan taqdirda to'xtatiladi.

VIII. SHARTNOMANING QONUNIY KUCHGA KIRISHI

8.1 SHartnomani taraflarning uzaro kelishuviga asosan yoki Uzbekiston Respublikasi Fukarolik kodeksiga xamda amaldagi konun xujjatlari normalariga binoan keltirilgan zararni tulagan xolda muddatidan ilgari bekor kilishi mumkin.

8.2 SHartnoma taraflar tomonidan imzolangan kundan sung konuniy kuchga kiradi.

IX. YAKUNIY QOIDALAR

9.1. Mazkur shartnoma tomonlarning kelishuviga ko'ra yoki boshqa tomon shartnoma shartlarini jiddiy ravishda buzgan taqdirda, tomonlardan birining talabi bo'yicha sud tartibida bekor qilinishi mumkin.

9.2. Mazkur shartnomaga har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar ular yozma shaklda sodir etilishi va tomonlarning bunga zarur darajada vakil qilingan vakillari tomonidan imzolanishi sharti bilan haqiqiy hisoblanadi.

9.3. Mazkur shartnoma tomonlarning har biri uchun bir nusxadan ikki nusxada tuziladi. SHartnomaning barcha nusxalari teng yuridik kuchga egadir.

9.4. Mazkur shartnoma, unga o'zgartirishlar (qo'shimchalar) ro'yxatdan o'tkazilgandan keyin bajarilishi kerak.

X. TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI VA BANK REKVIZITLARI

Bajaruvchi»

"URGUT OZOD BINOKOR

QURILISHM" MCHJ Manzili:

Urgut tuman Yu.Tegana MFY

tel/faks : (94) 583 83 29

x/r: 20208000505201921001

Bank nomi: ATB Mikrokredit Urgut f

MFO: 00301 INN: 307252590

OKONX: 61111

Raxbar: O.Oripov



«Buyurtmachi»

Urgut tuman Urgut tuman XTB

Manzili: Urgut sh Navoiy shox №8 uy

tel/faks (98) 150 07 40

sh/xv 100022860182367092100075146

byudjetdan mablag oluvchining STIRi

200784150

OKONX 97600

Moliya Vazirligi YAgona G'azna xisob varog'i

Gazna x/v 23402000300100001010

Toshkent sh., Markaziy Bankning

Toshkent sh. XKKM

MFO 00014 STIR i 201122919

Raxbar: E.Po'latov



**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA HUQUQIY
XULOSA**

VJ4750128863

1. Loyihaning turi : Shartnoma
2. Loyihaning nomi: **"URGUT OZOD BINOKOR QURILISHM" MCHJ bilan
80 000 000.00 (sakson million) so‘mlik shartnoma**
3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma‘lumot: URGUT TUMAN XALQ TA'LIMI MUASSASALARI FAOLIYATINI METODIK TA'MINLASH VA TASHKIL ETISH BO'LIMI tomonidan 23.11.2022 yilda kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Urgut tuman yuridik
markazi
bosh yuristkonsulti:**



U.Y. MAXMAISAYEV

28.11.2022

24.03.2020

Davlat xizmatlari markazi

2913574



Yuridik shaxs (tadbirkorlik subyektini) davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida
GUVOHNOMA

Ushbu bilan Tadbirkorlik subyektlari yagona davlat reyestriga

"URGUT OZOD BINOKOR QURILISH" Mas'uliyati cheklangan jamiyat

(Yuridik shaxsning – tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli ko'rsatilgan holdagi to'liq nomi)

"URGUT OZOD BINOKOR QURILISH" MChJ

(Yuridik shaxsning qisqartirilgan nomi)

Tashkil etish (qayta tashkil etish, boshqa ro'yxatdan o'tkazish ma'lumotlarini o'zgaritirishi)

24.03.2020

830684

ro'yxat raqamli yozuv kiritilganligi tasdiqlanadi

(Sana, oy (so'z bilan), yil)

Soliq to'lovchining identifikatsiya raqami (SIR)

307252590

Tashkiliy-huquqiy
shakli

Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Joylashgan joyi:

Samarqand viloyati, Urgut tumani, Mirzaqishloq, Yuqori Tegana mahallasi

Guvohnoma:

Samarqand viloyati, Urgut tumani, DAVLAT XIZMATLARI tomonidan
MARKAZI berilgan

(Ro'yxatdan o'tkazuvchi organing to'liq nomi)

